

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
“O‘ZBEKISTON MILLIY
ELEKTR TARMOQLARI”
AKSIYADORLIK JAMIYATI

100084, Toshkent sh., Yunusobod t., Osiyo k., 42.
Tel: (998-71) 208-56-01
e-mail: info@uzbekistonmet.uz
Veb sahifa: www.uzbekistonmet.uz



THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
JOINT STOCK COMPANY
“NATIONAL ELECTRIC
GRID OF UZBEKISTAN”

42, Osiyo str., Yunusobod dist., 100084, Tashkent
Ph: (998-71) 208-56-01
e-mail: info@uzbekistonmet.uz
Web site: www.uzbekistonmet.uz

02.12.2025-yil

01-03-18/8496-son

“MODEREN GREEN SERVICE”
MChJ direktori Sodiqzoda
Muhammadjon Maribjon o‘g‘liga

Sizning 2025-yil 27-noyabrdagi A-127-raqam bilan ro‘yxatga olingan arizangiz o‘rganib chiqilib, quyidagilar ma‘lum qilinadi.

O‘rganish jarayonida “MODEREN GREEN SERVICE” MChJga o‘rnatilgan tartibda biriktirilgan huddud “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ “Toshkent magistral elektr tarmoqlari” filialiga tegishli 220 kV kuchlanishdagi L-2-K-1 elektr uzatish havo tarmog‘ining 48-52-son tayanchlari oralig‘ida joylashgani hamda tarmoqning muhofaza maydonida mahalliy aholi tomonidan talablarga zid ravishda baland bo‘yli daraxtlar ekilganligi aniqlanib, ularni payhon bo‘lishidan oldin havfsiz hududga ko‘chirish bo‘yicha tushuntirish ishlari olib borildi.

Fuqarolardan tushgan murojaatga javoban, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida” 2017-yil 11-sentyabrdagi O‘RQ-445-sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga rioya etgan holda shakllantirilib, yuborilgan “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJning 2023-yil 19-dekabrdagi 01-02-18/5209-sonli xatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-dekabrdagi 1050-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Elektr tarmog‘i xo‘jaligi obyektlarini muhofaza qilish qoidolari” hamda amaldagi “Elektr qurilmalining tuzilishi qoidolari”ga muvofiq mavjud tarmoqlar muhofaza maydonidagi yerdan foydalanish tartibi bo‘yicha talablardan ko‘chirmalar keltirilgan bo‘lib, yerga bo‘lgan huquqini belgilash kuchiga ega emas.

Yuqorida keltirilgan qoidalar talablari mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar barcha jismoniy va yuridik shaxslarga bir xil tadbqiq etiladi.

Elektr uzatish havo tarmoqlari uchun doimiy foydalanishga ajratilgan yer deb faqat tayanchlar tagidagi tarkibiy qismdan tashqi tomonga sug‘orilmaydigan va ishlov berilmaydigan yerlar uchun 1 metr, sug‘oriladigan yerlarda 1,5 metr masofadagi maydon hisoblanadi. Ko‘rilayotgan hududda tarmoq muhofaza maydonidagi qolgan yerlar shu tarmoqqa egalik qiluvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotning mulki yoki doimiy foydalanish uchun ajratilgan yeri deb hisoblanmaydi.

Sizning tashkilotingizga qarashli er maydonidagi mulkingizga shikast etkazilishi, o‘zboshimchalik bilan faoliyat yuritilishini bartaraf etilishi yuzasidan vakolatli tashkilotlarga murojaat etilishi maqsadga muvofiq.

O'z navbatida elektr qurilmalarining barqaror ishlashiga havf tug'diradigan omillar vakolatimiz doirasida ekspluatatsiya jarayonida bartaraf etiladi.

Vakolat doirasidan tashqaridagi masalalar bo'yicha mahalliy hokimiyat yoki huquqni muhofaza qilish tashkilotlariga murojaat etilib, chora belgilanadi.

Elektr uzatish tarmoqlari muhofaza maydonida qonunbuzarlik holatlarining oldini olish yuzasidan hamkorligingiz uchun alohida minnatdorchiligimizni bildiramiz.



**Boshqaruv raisining
birinchi o'rinbosari
S. Artikov**

Baj: ETEUQB
Tel:71-236-60-86